O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

3. Горбунова Н. В. Инновационные технологии подготовки будущих специалистов в сфере дошкольного образования //Проблемы современного педагогического образования. – 2018. – №. 59-1. – С. 131-134.
4. Сухарев Л. А., Маслова С. В., Наумова Т. А. Использование инновационных образовательных технологий в профессиональной подготовке педагогических кадров //Гуманитарные науки и образование. – 2012. – №. 2. – С. 18а-23.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA TAQQOSLASH METODLARIDAN FOYDALANISH

p.f.f.d. G‘ofurova Mahfuza
Farg‘ona davlat universiteti
mahfuza.gafurova73@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarining matematik savodxonligini oshirishda fikrlashning ahamiyati, turli masala va topshiriqlarni yechim yo’llarini aniqlash, taqqoslash metodlaridan foydalanish, to’g‘ri qaror qabul qila olish ko’nikmalarini shakllantirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: matematik savodxonlik, fikrlash, mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, ko’nikmalar, kuzatish, tajriba, o’lchashlar, analiz (tahlil) va sintez muammoli vaziyat, sonning tarkibi.

Matematika fani mavjud moddiy dunyodagi narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni o’rganish jarayonida “ilmiy izlanish” metodlaridan foydalanadi. Ularni tarkibiga analiz va sintez usullari ham kiradi.

Boshlang’ich sinflarda matematika fanini o’qitishda analiz va sintez metodlari turli xil shakllarda namoyon bo’ladi. Masalan, masalalar yechish usuli, matematik tushunchalar, xossalarini o’rganish usuli va tadqiqot usullarini ko’rsatish mumkin.

Analiz va sintez bir-biridan ajralmas bo’lib,ular bir-birini to’ldiradi va yagona analitik-sintetik usulni tashkil etadi. Masalan, analiz yordamida masala bir nechta oddiy masalalarga ajratiladi, so’ngra sintez yordamida bu oddiy masalalar yechimlari birlashtiriladi .

O’quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko’nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o’lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o’rnida foydalanish talab etiladi. O’quvchilarda bilim va ko’nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo’llay olish kompetensiyalarini ham tarkib. Taqqoslash usuli qaralayotgan sonlar, arifmetik misollar, masalaning o’xshash va farqli alomatlarini ajratishdan iborat.

Taqqoslash-o’rganilayotgan obyektning o’xshashlik va farqlarini fikran ajratishdan iborat. Taqqoslash tadqiqot usuli sifatida obektlarga matematik xossalarini o’rganish uchungina emas, balki bu xossalarni o’rgatishda ham foydalanailadi.

Taqqoslashni qo’llashda quyidagi talablar bajarilishi lozim:

1. Taqqoslash reja asosida amalga oshirilishi lozim, ya’ni taqqoslash o’tkazilayotgan bosqichlar, xossalar aniq belgilanishi zarur.Masalan, burchaklar bir xil perimetrga ega bolganda yuzlarini taqqoslash, ichki burchaklari yig’indisga ko’ra taqqoslash Matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko’ra ko’proq amaliyotga e’tibor berish hamda o’quvchilarga tayyor o’quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma’lum darajada voz kechish talab qilinadi. Matematika darslarida ko’proq keys, tadqiqot, oyiha, kichik o’quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O’quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko’nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o’lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o’rnida foydalanish talab etiladi. O’quvchilarda bilim va ko’nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo’llay olish kompetensiyalarini ham tarkib. Taqqoslash usuli qaralayotgan sonlar, arifmetik misollar, masalaning o’xshash va farqli alomatlarini ajratishdan iborat.

Boshlang’ich sinflarda matematika fanini o’qitishda analiz va sintez metodlari turli xil shakllarda namoyon bo’ladi. Masalan, masalalar yechish usuli, matematik tushunchalar, xossalarini o’rganish usuli va tadqiqot usullarini ko’rsatish mumkin.

Dastlab analiz tafakkur uslubi sifatida qaralib, butundan qismlarga o’tishni,sintez esa qismlardan butunga o’tish yo’li sifatida qaraladi.Keyinchalik analiz tafakkur uslubi sifatida qaralib,natijadan uni keltirib chiqargan sababga o’tishdan iborat tafakkur uslubi sifatida qaraladi.

Sintez metodida fikrlashning bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o’tish go’yoki ko’r-ko’rona bo’ladi, bu o’tishlar o’quvchiga noaniqroq bo’ladi. Sintez metodida biz berilganlarga asoslanib nimalami topa olamiz, degan savolga javob beramiz.

Namunaviy topshiriqlar:

Masalan, 1. 4752 sonini tarkibini ajratib ko’rsating?

Javob: (4000+(700+(50+2)))=4752

2.348 sonining har bir xonasida nechta xona birligi bor?

Javob:3 ta xona birligi bor, 3 ta yuzlik, 4 ta o’nlik, 8 ta birlik. (300+(40+8))=348

3.Sonlarni xona qo’shiluvchilari yig’indis ko’rinishida yozung!

a) 6715;

Analiz tadqiqot uslubi sifatida tushunilib, son va o’lchov tushunchasiga tayanib, obyektni miqdoriy o’rganishdan iborat.Sintez obyektning sifatiy xossalarini o’rganishdan iborat tafakkur uslubidir.

Matematika o’qitishda analiz va sintez ikkinchi bosqich tushunish ma’nosida qo’llaniladi. Bu usullar nafaqat ilmiy-tadqiqiot usuli, o’quv materialini o’rganish usullari sifatida, balki tafakkur jarayoni shakllari sifatida ham namoyon bo’ladi.

Analiz ikki xil shaklda, ya’ni filtr shaklida va sintez orqali qo’llaniladi.Birinchi shakldagi analizda masalani yechayotgan kishi tasodifiy ravishda yechish usulini izlab birin-ketin mavjud usullarni qo’llab ko’radi. Sonlarni birliklariga ajratishda va ularni bir butun yozishda ilmiy izlanish metodlarining analiz va sintez qismidan foydalaniladi.

Eng kichik va eng katta bir xonali, ikki xonali,uch xonali va to’rt xonali sonlarni raqamlar ko’rinishida yozing;

a) bitta minglik, yettita yuzlik, yettita o’nlik, beshta birlikdan qanday son hosil qilinadi? Javob: 1775

b) uchta minglik, to’rtta yuzlik,beshta o’nlik, ikkita birlikdan qanday son hosil qilinadi? Javob: 3452

c) beshta minglik, oltita yuzlik,to’qqizta o’nlik,uchta birlikdan qanday son hosil qilinadi? Javob: 5693

d) sakkizta minglik, beshta yuzlik, oltita o’nlik ,uchta birlikdan qanday son hosil qilinadi? Javob: 8563

e) oltita minglik, to’rtta yuzlik,yettita o’nlik, ikkita birlikdan qanday son hosil qilinadi? Javob:6472

2.Maktab ktubxonasiga 8941 ta kitob olib kelindi.Bu necha minglik, yuzlik, o’nlik, birlikdan tashkil topgan? Javob: (8 ta minglik, 9 ta yuzlik, 4 ta o’nlik, 1 ta birlikdan)

3.Maktab kutubxonasiga 2 ta minglik, 6 ta yuzlik va 9 ta birlikda kitob keltirildi. Nechta kitob keltirilgan? Javob: 2609

Masalalar yechishda taqqoslashga o’rgatish metodikasining asosiy umumiy masalalari, turli ko’rinishdagi masalalarni qarab chiqish metodikasining xususiyatlari bilan bog’liq. Izlanayotgandan berilganlarga borish yo’li bilan masalalar yechishni o’zlashtirishdagi navbatdagi bosqich tarkibli masalani yechishning teskari yo’nalishini (taxlilni) to’la og’zaki razbor qilish bilan yechishdan iborat bo’ladi, shundan keyin yechish rejasini og’zaki tuzish (sintez) va masala savoliga javob olish uchun hamma amallarni bajarish amalga oshiriladi. Masalaning yechilishini tekshirib, yangi masala tuzish foydali, bu masala tarkibiga javob berilgan sifatida, berilganlardan biri esa izlanayotgan sifatida kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Davydov V. V. o'quv faoliyati: tadqiqotning holati va muammolari. // Boshlang'ich maktab. 1991-raqam 6-p. 16-23.

2. Rubinshteyn, S. L. umumiy psixologiya muammolari / S. L. Rubinshteyn-M.: ma'rifat, 2007.

3. Timerxonova G. K. matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish [elektron resurs] URL: http: / / www. openclass. ru/node / 275255.

4. Истомина, Н.Б. Методика обучения математике в начальных классах : учебное пособие для студентов ф-тов подготовки учителей нач. кл. пед. ин-тов, колледжей и училищ [Текст] / Н.Б. Истомина. – М. : ЛИНКА-ПРЕСС, 1997.

5.Ручкина, В.П. Курс лекций по методике обучения математике в начальных классах. [Текст] : учебное пособие. / В.П. Ручкина, Г.П. Калинина, Г.В. Воробьева. – Екатеринбург :Издатель Калинина Г.П., 2009.

6. Глаголева Ю.И. Математика.Тесты 4 класс:учебное пособие/Москва: «Просвещение», 2019.

7.Gafurova, M. A. (2022). Improving Mental Skills Of Students By Analyzing And Solving Problems. Current Research Journal Of Pedagogics, 3(01), 40-44.

8. Gafurova, M. A. (2021). Developing Cognitive Activities of Primary School Students based on an Innovative Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(10), 236-242.

UCH MUSHTARAK ASAR

Xurramova Maxliyo Bahodir qizi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. Maqolada uch didaktik asar Imom al-Buxoriy Hadislari, Abay “Nasihatlar”i va Kaykovusning “Qobusnoma” asaridagi mushtarak jihatlarga e’tibor qaratilgan. Bu uch manbani adabiyot darslarida o‘rganish bo‘yicha metod va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: hadis, aloqador, asar, metod, texnologiya, ta’lim, xulosa, tadqiqot, natija, sharh.

Inson ma’naviyatini shakllantirishda didaktik xarakterdagi, axloqiy-ta’limiy asarlarning o‘rni beqiyos. Biz tadqiqot mavzusi sifatida uch didaktik xarakterdagi asar: Buxoriy Hadislari, Kaykovus “Qobusnoma”si va Abay “Nasihatlar”ini tanladik. Bu uch asarni qiyosiy tahlilda rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari o‘qitish tadqiqotimizning asosiy maqsadidir.

Uch ijodkor Imom al-Buxoriy, Abay va Kaykovus hayoti va ijodiga aloqadaor qiziqarli ma’lumotlar quyidagi ko‘rinishda beriladi:

Buxoriy yo’li Kaykovus yo’li Abay yo’li

Bu metod orqali ya’ni uch yo‘l orqali uch ijodkor asarlari qisman yoritiladi, hayoti davomida o‘rnak olarli holatlarga diqqat qaratiladi.

B

Abu Abdulloh Muhammad Abu Hasan Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug’iyra ibn Ahnaf Yazdabih al-Buxoriy [4, B.142.] 870-yilda Buxoroda dunyoda kelgan. U kishi yetim bo’lib o’sdilar. 9 yoshga yetganda Qur’oni Karimni to’laligicha yod oldilar. Hadis eshitishni xush ko’rardilar, voyaga yetgunlariga qadar o’n mingdan ziyod hadisni yod bilar edilar.

Homid ibn Ismoil aytadilar: “Buxoriy bilan dars olardim. Biz har bir hadisni yozib borardik. Buxoriy esa yozmas edilar. Biz undan “Nega yozmaysiz?” deb so’rasak, u kishi “Qani, yozgan narsalaringni ko’rsatinglar-chi”, dedilar. Biz ko’rsatganimizda, biz yozgan hadislarni va unga yana 15 000 hadis ziyoda qilib, yoddan aytib berdilar”.

K

XI asr 82-83-yillarida G’arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o’g’li Gilonshohga bag’ishlab “Nasihatnoma” yaratadi. Davr an’anasiga moslab, podshoh bobosi Shamsul-maoliy Qobus sharafiga “Qobusnoma” tarixiga bag‘ishlangan.

“Qobusnoma” 1860-yilda o’zbek tiliga ilk bora Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan. 1967-yilda uncha katta bo’lmagan nusxada o’zbek